

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISHNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

**Sultonova Dilafro‘z Sirojiddinovna**

*Namangan viloyati Mingbuloq tumani 7-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlarini o‘rganish ta’lim jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Maqsad – bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim samaradorligini oshirish usullarini aniqlash. Tadqiqotda kuzatish, tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalarga ko‘ra, psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘quvchilarga shaxsiy yondashuvni tatbiq etish ularning o‘quv jarayonidagi faolligini va qiziqishini oshirishga yordam beradi. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ruhiy rivojlanishi, ta’lim metodlari va o‘qituvchining roli keng yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, psixologik xususiyatlar, pedagogik yondashuv, motivatsiya, individual rivojlanish, ta’lim samaradorligi.

### KIRISH

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy “Har bir inson, avvalo, yaxshi tarbiya va ta’lim olish orqali kamol topadi” deb ta’kidlagan. Haqiqatan ham, insonning shakllanishi, tafakkurining rivojlanishi va ijtimoiy hayotga moslashuvi aynan boshlang‘ich ta’limdan boshlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilim olishning ilk bosqichida bo‘lganligi sababli, ularga mos pedagogik yondashuvlarni qo‘llash o‘qituvchidan chuqr tushuncha va tajriba talab qiladi.

Psixolog Jean Piaget va Lev Vigotskiy bolalarning rivojlanish jarayonlarini o‘rganib, ularning tafakkuri va idrok qilish qobiliyatları yoshga qarab o‘zgarishini ta’kidlagan. Xusan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari asosan konkret va obrazli tafakkurga ega bo‘lib, mavhum tushunchalarni qabul qilishda qiyinchilik sezadilar. Shu sababli, ta’lim jarayonida ko‘rgazmali vositalar, interfaol o‘yinlar va jonli misollardan foydalanish muhim sanaladi.

Bolalarning emotsional rivojlanishi ham ta’lim samaradorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Agar o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari inobatga olinmasa, ular dars jarayoniga befarq bo‘lib qolishi yoki qo‘rquv va ishonchszilik hissiyotlari sababli bilim olish jarayonida sust ishtirok etishlari mumkin. Shu bois, bolalar psixologiyasini chuqr o‘rganish va ularga mos pedagogik usullarni tanlash boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishning eng samarali yo‘llaridan biridir.

### ASOSIY QISM

L.S. Vigotskiy eng mashhur rus psixolog va faylasuflaridan biridir. Olim o‘z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko’plab g’oyalar bevosita bolalarning psixik taraqqiyotiga oiddir.

L.S.Vigotskiyning oliy psixik funksiyalar shakllanishi haqidagi qonuni bolalar tarbiyasi va ta'limini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Psixolog ilmiy qiziqishlarining markazida bolaning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti masalasi turadi. L.S. Vigotskiyning izlanishlari oliy psixik funksiyalar, ya'ni ixtiyoriy xotira va diqqat, tafakkur, irodaviy harakatlami bevosita miyaning faoliyat bilan tushuntirib bo'lmasligini, ushbu funksiyalarning mohiyatini tushunish uchun ularning ildizlarini organizmdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini ko'rsatdi. Aynan L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlari ijtimoiy muhit ahamiyatini aniqlashtirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qildi. L.S. Vigotskiyning fikricha, muhit oliy psixik funksiyalaming taraqqiyot manbaidir. Muhitning taraqqiyotdagi roli yosh o'tishi bilan o'zgarib boradi. Shuning uchun muhitni absolyut emas, nisbiy qabul qilish kerak. Insonda xulq-atvorning tug'ma shakllari mayjud bo'lmaydi. Odamning psixik taraqqiyoti faoliyatning tarixan shakllangan turlari va usullarini o'zlashtirish orqali kechadi. Miyaning morfofiziologik xususiyatlari va muloqot bola taraqqiyoti uchun sharoit sifatida xizmat qiladi. Taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ta'limdir. L.S.Obuxovaning fikricha, L.S. Vigotskiyning katta xizmati shundaki, u bolalar psixologiyasi faniga tarixiylik tamoyilini kiritgan. Ushbu tamoyilga ko'ra, psixik hodisalar harakatdagi narsa sifatida o'rganilishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq obrazli va harakat orqali o'rganishga moyil bo'ladilar. Ularning idroki kattalarnikidan farq qiladi va ular yangi bilimlarni tezda o'zlashtirish uchun ko'proq o'yin va amaliy mashg'ulotlarga ehtiyoj sezadilar. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda ta'lim berishning innovatsion usullarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida motivatsiyani oshirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. O'qituvchi tomonidan rag'batlantirish, ijobiy baho va mos yondashuv qo'llanganda, bolalar bilim olishga yanada qiziqish bilan yondashadilar. Ayniqsa, interfaol dars uslublaridan foydalanish, masalan, guruhlarga bo'linib ishslash, rolli o'yinlar va jismoniy faollikni talab qiladigan mashg'ulotlar bolalarning ishtirokini oshiradi. Motivatsiyani oshirish uchun psixologik metodlardan ba'zi misollarni keltirish mumkin:  
Ijobiy mustahkamlash : O'quvchilarning muvaffaqiyatlarini va kichik yutuqlarini tan olish, ular uchun ijobiy rag'bat bo'ladi. Masalan, o'quvchiga yaxshi javob berganda yoki topshiriqni to'g'ri bajarganda maqtov aytish yoki ball berish. Bu o'quvchini yanada faol qiladi va ruhlantiradi.

Maqsadga yo'naltirilgan motivatsiya: O'quvchilarga aniq va o'lchab bo'ladigan maqsadlar qo'yish ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, "Bugun 10 ta savolga to'g'ri javob berish" kabi maqsadlar o'quvchini qiziqtirib, uning darsda qatnashishini oshiradi.

O'zini o'zi boshqarish: O'quvchilarga o'zlarini baholash va o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini berish motivatsiyani oshiradi. Masalan, darsning oxirida o'quvchilarga o'z ishslashlarini baholab, qanday muvaffaqiyatlar va qiyinchiliklar borligini o'ylashni so'rash.

Hamkorlikda o'rganish: O'quvchilarni guruhlarga bo'lib, birgalikda ishslashga rag'batlantirish. Bu metod orqali ular o'zaro yordam berib, bir-birlaridan o'rganishadi va motivatsiyalari oshadi. Guruh ishlari o'quvchilarni yanada faol bo'lishga undaydi.

Darsning turli shakllari : O’quvchilarining diqqatini ushlab turish uchun turli dars shakllarini (qiziqarli video, amaliy mashg’ulotlar, o’yinlar) qo’llash. Bu, o’quvchilarining darslardan charchamasliklariga yordam beradi va darsga bo’lgan motivatsiyasini oshiradi.

Ta’limda shaxsiy yondashuv ham katta ahamiyatga ega. Har bir bolaning o’ziga xos xususiyatlari va qobiliyatlarini inobatga olib dars jarayonini tashkil etish, ularning bilim olish jarayonini ancha yengillashtiradi. Masalan, ba’zi o’quvchilar tez o’rganadi, boshqalari esa mavzuni tushunish uchun ko’proq vaqt talab qiladi. Differensial yondashuv orqali har bir o’quvchiga mos metod qo’llanilishi dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Boshlang’ich sinfda differensial yondashuv orqali har bir o’quvchining o’ziga xos xususiyatlarini inobatga olish uchun qo’llanilishi mumkin bo’lgan metodlardan ba’zilari quyidagilardir:

Krossvord: Krossvord o’yini o’quvchilarni so’zlarni eslab qolish va mavzuni yanada chuqurroq o’rganishga undaydi. Bu metod, ayniqsa, tez o’rganadigan o’quvchilar uchun juda samarali bo’ladi. Boshqa o’quvchilar uchun esa, krossvordlarni oddiylashtirib, ko’proq yordam bilan foydalanish mumkin. Misol uchun, murakkab so’zlar o’rniga oddiy va tushunarli so’zlar tanlash mumkin.

Klaster : Klaster metodida o’quvchilar turli tushunchalarni bir mavzu atrofida guruhashadi. Bu metod har bir o’quvchiga o’z o’rganish tezligiga qarab moslashtirilishi mumkin. Tez o’rganadigan o’quvchilar uchun murakkab klasterlar, sekinroq o’rganayotganlar uchun esa oddiyroq va asosiy tushunchalarni ajratib olishni taklif qilish mumkin.

“Liderlar shartnomasi”: Bu metodda o’quvchilar bir guruhdagi bir-biriga o’rgatishadi. Tez o’rganadigan o’quvchilar bir guruhdagi bilimlarni o’rgatishda yordam berishadi, boshqalar esa o’rganganlarini qo’llab-quvvatlaydilar. Bu metodda har bir o’quvchi o’z qismini o’rganganidan so’ng, barchaga tushuntiradi, bu esa bilimni yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijtimoiy rivojlanishi ham ularning ta’lim olish jarayoniga bevosita ta’sir qiladi. Bolalar yoshligidan jamoaviy ishlashga, muloqotga va fikr almashishga o’rgatilishi kerak. Dars jarayonida jamoaviy faoliyatni kuchaytirish, o’quvchilarining erkin fikr bildirishiga imkon yaratish va ular bilan muloqotni mustahkamlash o’quv jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Shuningdek, o’qituvchining o’quvchilar bilan bo’lgan munosabati ularning ta’limga bo’lgan munosabatini shakllantiradi. O’qituvchi mehribon va tushunadigan bo’lsa, bolalar bilim olishga ishtiyoq bilan yondashadilar. Aksincha, haddan tashqari qattiqqo’llik yoki talabchanlik o’quvchilarda qo’rquv hissini uyg’otib, ularning faolligini pasaytirishi mumkin.O’quvchilar, o’qituvchining qo’llab-quvvatlashi va ijobiy munosabati bilan yanada faolroq bo’lishadi. Amerikalik Psixolog Carol Dweck o’zining “Growth Mindset” (Rivojlanish fikri) konsepsiyasida shunday degan: “O’qituvchilarining o’z-o’ziga ishonchi va ijobiy munosabati, o’quvchilarining o’z imkoniyatlariga bo’lgan ishonchini oshiradi.” Bu shuni ko’rsatadiki, qattiqqo’llik va talabchanlik o’quvchilarni qo’rquvgaga solishi mumkin, bu

esa ularning faolligini pasaytiradi. Darsda do’stona muhit yaratish, o’quvchilarga o’zlariga ishonish imkonini beradi va ularning muvaffaqiyatiga olib keladi.

## XULOSA

Yuqorida keltirilgan dalillarga asoslanib aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o’quvchilarining psixologik xususiyatlarini chuqr o’rganish va ularga mos yondashuvni qo’llash ta’lim jarayonini samarali tashkil qilishning muhim shartlaridan biridir. O’qituvchi o’quvchilarning yoshiga mos pedagogik metodlarni tanlagan holda dars o’tishi, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda individual yondashuv qo’llash ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O’quvchilarning emotsiyal holati, motivatsiyasi va ijtimoiy rivojlanish darajasi ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Shunday ekan, boshlang‘ich ta’limda o’qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki bolalarning shaxs sifatida shakllanishida asosiy rol o’ynovchi shaxs bo’lishi lozim. Innovatsion ta’lim usullari va psixologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali o’quvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga erishish mumkin. Bu esa, o’z navbatida, ularning keljakdagi muvaffaqiyatlariga asos bo’lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri
2. Jean Piaget. Bolalar psixologiyasi
3. L. S. Vygotskiy. O’quvchilarning rivojlanish nazariyasi
4. Sh. Amonashvili. Insonparvar pedagogika
5. O’zbekiston Respublikasi Ta’lim va fan vazirligi metodik qo’llanmalar
6. [www.edu.uz](http://www.edu.uz) – O’zbekiston ta’lim portali